

INGLIZ TILI FONETIKASI VA UNING TO‘G‘RI TALAFFUZNI O‘ZLASHTIRISHDAGI AHAMIYATI

Muhammadova Nodirabegim Mirjon qizi –

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti,
Tarjima nazariyasi va amaliyoti- Ingliz tili yo‘nalishi talabasi.*

ANNOTATSIYA: Mazkur ish chet tilini, xususan ingliz tilini o‘qitish jarayonida to‘g‘ri talaffuz va fonetik me‘yorlarga rioya qilishning ahamiyatini yoritishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda talaffuzdagi xatolar nutqning tushunarlilikiga qanday ta’sir ko‘rsatishi, noto‘g‘ri fonetik realizatsiya so‘z ma’nosining o‘zgarishiga olib kelishi ilmiy dalillar asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, talabalar chet tilini o‘rganish jarayonida grammatik va leksik kompetensiyani egallaganidan so‘ng fonetik jihatlarni e’tibordan chetda qoldirish holatlari keng yoritiladi.

Ishda ingliz tilining fonetik qurilishi o‘zbek tili bilan qiyosiy jihatdan ko‘rib chiqilib, unli tovushlarning cho‘ziq va qisqa talaffuzi, diftong va triftonglarning o‘ziga xos xususiyatlari, undosh tovushlarning jarangli va jarangsiz turlari, ularning so‘z oxiridagi talaffuz me‘yorlari tahlil etiladi. Fonetik transkripsiyaning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilib, uning to‘g‘ri talaffuzni shakllantirishdagi roli asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: fonetika, talaffuz, fonetik transkripsiya, unli va undosh tovushlar, diftong, urg‘u va intonatsiya, chet tilini o‘qitish.

АННОТАЦИЯ: Данная работа посвящена изучению роли правильного произношения и соблюдения фонетических норм в процессе обучения иностранному языку, главным образом английскому. В исследовании анализируется влияние неправильного произношения на коммуникативную понятность речи, а также причины и последствия искажения смыслового содержания слов вследствие фонетических ошибок. Особое внимание уделяется

ситуации, когда обучающиеся, овладев грамматической структурой и базовым словарным запасом, пренебрегают орфоэпическими нормами.

В работе проводится сопоставительный анализ фонетического строя английского и узбекского языков, рассматриваются особенности долгих и кратких гласных, дифтонгов и трифтонгов, а также специфика произношения звонких и глухих согласных. Раскрывается значение фонетической транскрипции как инструмента формирования правильных произносительных навыков.

Ключевые слова: *фонетика, произношение, фонетическая транскрипция, гласные и согласные, дифтонги, ударение и интонация, обучение иностранному языку.*

ANNOTATION: *This paper focuses on the importance of correct pronunciation and phonetic norms in the process of teaching and learning a foreign language, particularly English. The study examines how deviations from standard pronunciation affect speech intelligibility and how phonetic errors may lead to changes in lexical meaning. Special attention is given to cases in which learners, having acquired grammatical competence and basic vocabulary, tend to neglect phonetic and orthoepic rules.*

The research presents a comparative analysis of the phonetic systems of English and Uzbek, highlighting the features of long and short vowels, diphthongs and triphthongs, as well as the articulation of voiced and voiceless consonants. The role of phonetic transcription as an essential tool for acquiring accurate pronunciation skills is thoroughly discussed.

Key words: *phonetics, pronunciation, phonetic transcription, vowels and consonants, diphthongs, stress and intonation, foreign language teaching.*

Hozirgi paytda chet tilini o'qitish amaliyoti shuni ko'rsatadiki, nutqda to'g'ri talaffuz me'yorlariga amal qilmaslik tinglovchi uchun nutqning tushunarsiz bo'lib qolishiga olib keladi. Bu holat so'zlarning asl ma'nosini o'zgartirib yuborishiga sabab bo'lib, turli noqulayliklarni keltirib chiqaradi. Ayrim hollarda shunday vaziyatlar kuzatiladiki, talaba o'rganayotgan tilning grammatik tuzilishini o'zlashtirib, ma'lum darajadagi lug'at boyligiga ega bo'lgach, chet tilida gap tuza boshlaydi. U muloqot jarayonida suhbatdosh tomonidan tushunilayotganiga ishonch hosil qilgach esa fonetika va orfoepiya me'yorlariga rioya qilish masalasini e'tibordan chetda qoldiradi.

Til insonlar o'rtasidagi eng asosiy aloqa vositasi bo'lib, jamiyat taraqqiyoti jarayonida shakllanib, umumiy manfaatlarga xizmat qiladi. Tilning kelib chiqishi va rivojlanishi jamiyatning o'sishi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, inson kamoloti bilan shug'ullanuvchi barcha fanlar til bilan uzviy aloqada bo'ladi. Tilning tabiati va mohiyati, uning jamiyatdagi roli, tuzilishi hamda bu tuzilmani tashkil etuvchi qismlarning o'zaro bog'liqligi, shuningdek, tilning ishlash mexanizmi va qonuniyatlarini chuqur o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi [1, 36].

Demak, chet tilini o'rganish jarayonida talaba o'z e'tiborini nutq organlarining faoliyatiga qaratishi, har bir fonemani imkon qadar me'yorida va to'g'ri talaffuz qilishga intilishi lozim. Shu bois ingliz tili tovushlarini to'g'ri talaffuz qilish nutq organlarining holati va harakatini chuqur o'rganishni talab etadi.

Talaffuzni to'g'ri shakllantirish uchun ingliz tilining orfografiyasi va tovush tizimiga qisqacha to'xtalib o'tish zarur. Ma'lumki, og'zaki nutq tovushlardan tashkil topadi, yozma nutq esa harflar orqali ifodalanadi. Tovush talaffuz qilinadi, harf esa tovushning yozuvdagi grafemik aksidir. Ingliz tilida so'zlarning yozilishi ularning talaffuzidan keskin farq qiladi [2, 240]. Buning sababi ingliz tili orfografiyasining bir necha asrlar davomida deyarli o'zgarmaganligi, shu davr mobaynida esa tilning tovush tizimida katta o'zgarishlar yuz berganligidadir. Bu holatni til tarixini o'rganish yoki boshqa tillarning ingliz tiliga ta'siri doirasida ham kuzatish mumkin.

Ingliz tilida tovushlar soni harflar sonidan ancha ko'p bo'lib, 26 ta harf 44 ta tovushni ifodalaydi. Shulardan 20 tasi unli tovushlardan iborat. Ingliz tilida so'zlarni to'g'ri o'qish va talaffuz qilish uchun harflar, harf birikmalari hamda ularning fonetik transkripsiyasini bilish muhimdir. Transkripsiya so'zlarning to'g'ri o'qilishini ifodalovchi fonetik belgilash tizimi hisoblanadi.

Fonetik transkripsiya tovushlarni ifodalovchi aniq belgilar majmuasidan iborat bo'lib, ular kvadrat qavslar ichida yoziladi. Masalan: *be* [bi:], *fine* [fam], *so* [səʊ], *write* [raɪt], *or* [ɔ:] va boshqalar.

Ingliz tilining fonetik tuzilishi o'zbek tilining fonetik tuzilishidan keskin farq qiladi. Jumladan, ingliz tilida unlilar uzoq (cho'ziq) va qisqa talaffuz qilinadi. Qisqa unli tovushni cho'ziq qilib talaffuz qilish yoki, aksincha, cho'ziq unlini qisqa aytish so'z ma'nosining keskin o'zgarishiga olib keladi. Bunga misol sifatida quyidagi so'zlarni keltirish mumkin: *beat* — “urmoq”, *bit* — “bo'lak” va hokazo. Transkripsiyada cho'ziq urg'uli unlilar ikki nuqta [:] belgisi yordamida ifodalanadi.

Ingliz tilida o'zbek tilidan farqli ravishda diftong va triftonglar mavjud. Ular mos ravishda ikki yoki uch unli elementdan tashkil topib, bir bo'g'in doirasida yaxlit holda talaffuz qilinadi [3, 372].

Nutq organlarining ishtirokiga ko'ra tovushlar ikki guruhga bo'linadi:

1. unlilar;
2. undoshlar.

Unli tovushlarni talaffuz qilish jarayonida tovush paychalari ishtirok etib, ovoz hosil bo'ladi. O'pkadan chiqayotgan havo oqimi esa og'iz bo'shlig'ida hech qanday to'siqqa uchramaydi. Shu sababli unlilar musiqiy ohangga ega bo'ladi.

Undosh tovushlarni talaffuz qilishda esa nutq organlarining to'liq yoki qisman ishtiroki natijasida havo oqimi to'siqqa uchraydi va shovqin hosil bo'ladi. Shunga ko'ra, undoshlar shovqinli, unlilar esa ovozli (musiqiy) tovushlar hisoblanadi.

Undoshlar o'z xususiyatiga ko'ra jarangli va jarangsiz turlarga bo'linadi. Ingliz tilida undoshlarni talaffuz qilish o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular so'z oxirida

hech qachon jarangsizlanmaydi. Jarangli undoshni jarangsiz talaffuz qilish soʻz maʼnosining butunlay oʻzgarishiga olib keladi.

Masalan:

nodd [nɒd] — “irgʻamoq”,

not [nɒt] — “inkor yuklamasi”.

Ingliz tilida soʻzlar oʻzbek tilidagi kabi boʻgʻinlarga boʻlinadi va boʻgʻin ajratishda asosan unlilar yetakchi rol oʻynaydi [4, 370]. Shu bilan birga, *m*, *n*, *l* sonant tovushlari soʻz oxirida kelib, ulardan oldin *b*, *d*, *v* kabi jarangli undoshlar turgan taqdirda ham boʻgʻin ajratuvchi vazifasini bajaradi. Masalan: *seven* ['sevn].

Intonatsiya, urgʻu va pauza ham toʻgʻri talaffuzning ajralmas tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Bugungi kunda talabalarning talaffuzini toʻgʻri yoʻlga qoʻyish va uni rivojlantirish uchun barcha shart-sharoitlar mavjud. Zamonaviy kompyuter texnologiyalarining jadal rivojlanishi, innovatsion texnologiyalarning kundalik hayotimizda yetakchi oʻrin egallashi hamda internet tizimining keng joriy etilishi ingliz tilini oʻrganish jarayonini sezilarli darajada tezlashtirmoqda. Bu esa ogʻzaki nutq, talaffuz malakalari va koʻnikmalarini yanada takomillashtirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Reference

1. Amirqulov D. The TAQLID SO ‘ZLARNING O ‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA O ‘RNI VA GRAMMATIK XUSUSIYATLARI //Conferences. – 2025. – T. 1. – №. 01.
2. Розиков О. Р., Огаев С. Ю., Махмудова М., Адизов Б. Р. Дидактика: учебное пособие. – Ташкент: Фан, 1997. – 240 с.
3. Трубецкой Н. С. Основы фонологии. – Москва: Изд-во иностранной литературы, 1990. – 372 с.
4. Жинкин Н. И. Механизмы речи. – Москва: Издательство Академии педагогических наук РСФСР, 1999. – 370 с.